



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

MAVZU: ILMIY TADQIQOT NATIJALARINI TAQDIMOT ORQALI SAMARALI VA TUSHUNARLI BAYON ETISH

Muallif: i.f.f.d. (PhD), A.Sh. Mamatov

<https://raqamlitalim.trm.uz/yosholim>



Toshkent-2026 >



KIRISH

Ilmiy tadqiqot natijalarini taqdimot orqali bayon etish — bu tadqiqotchining asosiy g'oyalari, ilmiy yangiliklari va xulosalarini qisqa, aniq hamda tushunarli tarzda auditoriyaga yetkazishning muhim vositasidir. Ushbu ko'nikma PhD va DSc izlanuvchilari uchun dissertatsiya himoyasi, ilmiy seminarlar va konferensiyalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishda alohida ahamiyat kasb etadi.



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotchilar ilmiy ishni sifatli bajargan bo'lsalar-da, uni taqdim etishda ayrim xatolarga yo'l qo'yadilar. Jumladan, slaydlarni ortiqcha matn bilan to'ldirish, asosiy g'oyalarni ajratib ko'rsata olmaslik, vizual vositalardan samarasiz foydalanish hamda auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatishda olmaslik taqdimot sifatini pasaytiradi.

ILMIY TAQDIMOTNING MAQSADI VA AHAMIYATI

Ilmiy taqdimot — tadqiqotning asosiy g'oyalari, ilmiy natijalari va xulosalarini qisqa vaqt ichida auditoriyaga aniq, tushunarli va ishonchli tarzda yetkazish vositasidir.

Taqdimot dissertatsiya matnining qisqartirilgan nusxasi emas, balki tadqiqotning eng muhim jihatlarini yorituvchi ilmiy kommunikatsiya shaklidir.

Ilmiy taqdimot qo'llaniladigan holatlar:



Dissertatsiya himoyasi

Tadqiqot natijalarini ilmiy kengashga taqdim etish.



Ilmiy seminarlar

Tadqiqot jarayoni va natijalarini muhokama qilish.



Xalqaro konferensiyalar

Ilmiy natijalarni xalqaro hamjamiyat bilan baham ko'rish.



Grant loyihalari

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini asoslash.



Samarali taqdimot tinglovchilarga tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi, metodologiyasi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini tez anglash imkonini beradi hamda tadqiqotchining ilmiy tayyorgarligi va taqdimot mahoratini namoyon etadi.

SAMARALI ILMIY TAQDIMOTNING ASOSIY TAMOIYILLARI

Samarali ilmiy taqdimot mazmunning aniqligi, mantiqiyligi va tinglovchi uchun tushunarligiga asoslanadi.



Aniqlik va qisqalik

Har bir slayd bitta asosiy g'oyani yoritishi, ortiqcha matn bo'lmashligi lozim.

01



Mantiqiy ketma-ketlik

Slaydlar muammo → metod → natija → xulosa izchilligida joylashtiriladi.

02



Vizual soddalik

Jadval, grafik va rasmlar mazmunni ochib berishi, dizayn esa sodd bo'lishi kerak.

03



Ilmiy ishonchlilik

Barcha ma'lumotlar ishonchli ilmiy manbalarga asoslanishi va zarur hollarda manbasi ko'rsatilishi lozim.

04

ILMIY TAQDIMOTNING TUZILISHI VA SLAYDLAR KETMA-KETLIGI

Ilmiy taqdimot tadqiqotning mantiqiy ketma-ketligini aks ettirishi va tinglovchiga asosiy g'oyalarni izchil yetkazishi lozim.

1

Dissertatsiya mavzusi, muallif, ilmiy rahbar va tashkilot

2

Muammoning ahamiyati va tadqiqot zarurati (dolzarbligi)

3

Tadqiqot maqsadi hamda asosiy vazifalar

4

Tadqiqot obyekti va predmeti

5

Qo'llanilgan metod va yondashuvlar

6

Ilmiy yangiliklar va ularning natijalari

7

Natijalarning amaliyotga joriy etilishi (amaliy ahamiyati)

8

Asosiy xulosalar



Metodik tavsiya

Himoya taqdimoti odatda **15–20 ta** slayddan iborat bo'ladi. Har bir slayd bitta asosiy g'oyani yoritishi va ortiqcha matnlardan xoli bo'lishi lozim.



ILMIY NATIJALARNI VIZUAL TAQDIM ETISH USULLARI

Ilmiy natijalarni vizual vositalar orqali taqdim etish ularni tezroq anglash va esda saqlash imkonini beradi. Shuning uchun taqdimotda matndan ko'ra grafik materiallardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.



Diagrammalar

Ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun.



Grafiklar

Vaqt bo'yicha o'zgarishlar va tadqiqot natijalarini ko'rsatish uchun.



Jadvallar

Asosiy raqamli ma'lumotlarni ixcham taqdim etish uchun.



Blok-sxemalar

Jarayonlar, metodologiyalar va algoritmlarni tushuntirish uchun.



Infografikalar

Murakkab ma'lumotlarni sodda va tushunarli ko'rsatish uchun.

VIZUAL TAQDIMOTDA AMAL QILINADIGAN QOIDALAR

- ✓ Har bir slaydda faqat **bitta asosiy grafik yoki diagrammadan** foydalaning.
- ✓ Ranglardan ma'lumotlarni **ajratib ko'rsatish** maqsadida foydalaning, ortiqcha bezaklardan saqlaning.
- ✓ Barcha **jadval, grafik va diagrammalarga** sarlavha hamda zarur hollarda manba ko'rsating.
- ✓ Grafiklarda **o'qlar, o'lchov birliklari va ko'rsatkichlar** aniq ifodalansin.
- ✓ Har bir grafik yoki diagrammaning **asosiy xulosasini qisqacha izohlang**.
- ✓ Faqat **yuqori sifatli va aniq** tasvirlardan foydalaning.





Mistake

ENG KO'P UCHRAYDIGAN XATOLAR

Dissertatsiya himoyasi amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar taqdimot tayyorlashda ko'pincha ilmiy yangilikni alohida ajratib ko'rsatish, asosiy ilmiy natijalarni vizual tarzda ifodalash hamda taqdimot vaqtini to'g'ri taqsimlashga yetarli e'tibor bermaydilar. Natijada tadqiqot sifatli bajarilgan bo'lsa-da, uning ilmiy qiymati auditoriyaga to'liq yetib bormaydi.

- 1 Slaydlarni ortiqcha matn bilan to'ldirish va dissertatsiya matnini takrorlash
 - Bitta slaydda bir nechta g'oyani yoritish hamda grafik va diagrammalardan yetarli foydalanmaslik
- 2
- 3
 - Taqdimot vaqtining asosiy qismini kirish va nazariy ma'lumotlarga sarflab, ilmiy natijalar, ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatni yetarlicha yoritmaslik

DISSERTATSIYA HIMOYASI UCHUN TAQDIMOT TAYYORLASHGA TAVSIYALAR



Taqdimotni 15–20 ta slayd doirasida, mantiqiy ketma-ketlikda tayyorlang.



Har bir slaydda bitta asosiy g'oyani yoritib, ortiqcha matndan saqlaning.



Muhim ilmiy natijalarni jadval, grafik, diagramma va blok-sxemalar orqali ifodalang.



Taqdimot matnini oldindan mashq qiling va belgilangan vaqt (10–15 daqiqa)ga rioya qiling.



Taqdimot davomida auditoriya bilan ko'z aloqasini saqlang, slayddagi matnni o'qib bermang.



Himoya yakunida asosiy ilmiy natijalar, amaliy ahamiyat va ilmiy yangilikni qisqacha umumlashtiring

XULOSA

Ilmiy tadqiqot natijalarini taqdimot orqali samarali va tushunarli bayon etish tadqiqotchining ilmiy kommunikatsiya kompetensiyasining muhim tarkibiy qismidir. Sifatli taqdimot tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi, metodologiyasi, ilmiy natijalari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini qisqa, mantiqiy hamda vizual jihatdan tushunarli tarzda auditoriyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Samarali taqdimot tayyorlashda slaydlarning mantiqiy ketma-ketligi, matn va vizual vositalar o'rtasidagi muvozanat hamda asosiy ilmiy g'oyalarni aniq bayon etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur tamoyillarga amal qilish dissertatsiya himoyasi va ilmiy anjumanlarda tadqiqot natijalarini ishonchli taqdim etish, auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatish va tadqiqotchining ilmiy salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradi.





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

<https://raqamlitalim.trm.uz/yosholim>

